

MIRZO BOBUR ABDURAHMON JOMIY HAQIDA

**Yulduz Karimova, Sohib Boysinov-
jspi.uz**

Soha mutaxassislarining e'tiroficha, XV – XVI asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari tadqiqi asosida yaratish mumkin ekan. Darhaqiqat, XV – XVI asrlardagi Movarounnahr, Xuroson va Hindiston hududida yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, adabiy, madaniy voqealarni o'rganishda “Boburnoma”ning o'rni beqiyos ekanligini har bir ma'rifatli inson e'tirof etadi.

XV asrning oxiri, XVI asrning boshlaridagi tarixiy voqelik, Mirzo Bobur chekiga tushgan mas'uliyat, mavqe, ijtimoiy, siyosiy faoliyat uning shoir, adabiyotshunos sifatidagi dunyoqarashi, nuqtai nazarining shakllanishiga ham, albatta, katta ta'sir ko'rsatdi.

Temuriy shahzodalarning boshini bir yerga jam qilib, Shayboniyxon bosqiniga qarshi birlashmoq qasdida yonayotgan Mirzo Bobur 1506 yili Xuroson poytaxti Hirotga keladi.

Maishat va ichkilikka mukkasidan ketgan, Hirot taxtini bir-birlaridan qizg'anib, yurtning kentlarini dushmanga oldirib qo'yayotgan kaltabin, xudbin aka-ukalar Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolarning tutimlarini ko'rgan Mirzo Bobur ularni o'ziga hech qachon hammaslak bo'lolmasliklarini anglab, o'rtanadi. Ana shunday paytda Mirzo Bobur taskinni vafot etganiga besh-olti yil bo'lib qolganiga qaramay hali ham muborak ruhi, nafasi sezilib turgan Alisher Navoiy yashagan xonadonida topadi. Bu haqda “Boburnoma”da shunday deyiladi: “Tonglasi kelib Bog'i Navda tushtum. Bog'i Navda bir kecha bo'ldum, ani munosib ko'rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiriyydan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim” (Bobur “Boburnoma”, Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 170-bet).

“Hiriydan chiqquncha Alisherbekning uylarida kechgan Mirzo Bobur kunlari uning tahlikali, suronli hayotining eng sohir, huzurbaxsh, fayziyob damlari bo‘lganligi shubhasiz. Mirzo Bobur bu lahzalar sururini keyinchalik o‘zining ijodiy va ilhomiy holatlarida qayta va qayta his etgan bo‘lsa, ajab emas.

“Boburnoma”ning to‘qqiz yuz o‘n birinchi (1505-1506) yil voqealari bayoni bobini mutolaa qilar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda XV asrning ikkinchi yarmidagi Xuroson, o‘z bag‘rida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih kabi buyuk iste’dodlar ilhomiga qanot bag‘ishlagan, talantlarini kamolatga yetkazgan jannatiy maskan, fayziyob Hirot qasd rostlaydi.

Mirzo Bobur shunday yozadi: “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamon edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiriy shahri mamlu erdi. Har kishiningkim bir ishg‘a mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolga teguray” (Bobur “Boburnoma” Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 16-bet).

Mirzo Bobur bu bobda XV asr ikkinchi yarmi Hirot adabiy, ilmiy, madaniy muhitida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan qirqqa yaqin fozil insonlar haqida ma’lumot beradi.

Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Vahob Rahmonning: “Agar “Boburnoma” yozilmasa, bizning Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy hayotlari, faoliyatlari va ijodlari, xususan, shaxslari haqida tasavvurlarimiz anchayin yuzaki bo‘lib qolgan bo‘lardi”,-(Z.M.Bobur. Boburnoma. V.Rahmon, K.Mullaho‘jaeva tabdili. T.: O‘qituvchi, 2008, 16-bet) degan so‘zlarini eslash o‘rinli bo‘lardi. Shu ma’noda “Boburnoma”da XV asr Hirot adabiy muhitining yana bir ulkan vakili Abdurahmon Jomiy bilan bog‘liq o‘rinlarga e’tiborimizni qaratsak: “...Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi. She’ri xud ma’lumdir. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta’rifqa ehtiyoj bo‘lg‘ay” (Bobur. “Boburnoma” Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 160 bet).

Bu e’tirofdan Mirzo Boburning Jomiy ijodiga va shaxsiga bo‘lgan hurmati, e’tiqodi Navoiydan kam bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Mirzo Boburning

o‘zi ta’kidlaganidek Hirot adabiy muhitining “saromadi va sardaftari” Mavlono Abdurahmon Jomiyning ellikdan ortiq asarlari borligi ilmda qayd etilgan. Shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvuf Jomiy ijodining serqirraligi, qamrovining kengligi ham Mirzo Boburni hayratlantirgan, havaslantirgan va o‘ziga chorlagan.

“Boburnoma”ning bir necha o‘rinlarida Mirzo Boburning Jomiy ijodi bilan yaxshi tanish ekanligi, asarlarining mazmun mohiyatidan yaxshi xabardorligi ko‘zga tashlanadi. Xususan, 1506 yilda Xurosonga kelgan Mirzo Bobur Abdurahmon Jomiy qabrini ziyorat qiladi va shu bilan birgalikda buyuk mutafakkirning yaqin shogirdi, o‘sha paytlari Abdurahmon Jomiy madrasasida yashayotgan, betob bo‘lib qolgan Mullo Abdug‘afur Loriyni ham borib ko‘radi. Shu o‘rinda “Boburnoma”ga murojaat qilsak: “Yana Mullo Abdug‘afur Loriy edi. Mavlono Abdurahmon Jomiyning ham muridi, ham shogirdi edi. Mulloning aksar musannafatini mullo qoshida o‘tkarib edi. “Nafahot”qa sharh yo‘sunluq bir nima bitibtur” (Bobur “Boburnoma” Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 160 bet).

Ko‘rib turganimizdek, nasrga moyilligi kuchli bo‘lgan Mirzo Bobur Jomiyning shu yo‘lda yozilgan “Nafahot ul-uns”, shuningdek, “Bahoriston” asarlari bilan yaxshi tanish bo‘lgani holda, shogirdi Abdulg‘afur Loriyning o‘z ustози asariga yozgan sharhi – “Takmila bar “Nafahot ul-uns” (“Nafahot ul-uns”ga qo‘shimcha) haqida ham ma’lumotga ega. Yana xuddi shunday bir misolni Alisher Navoiyga bag‘ishlangan sahifalarda ham ko‘rish mumkin. “Boburnoma”da Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarni birma–bir sanab turib: “Ul jumladin, insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyga taqlid qilib jam’ qilibtur. Hosila kalom, har kimga har ish uchun har xatkim bitibtur, yig‘ishtiribtur”,–deydi (Bobur “Boburnoma” Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 154 bet). Bu ma’lumotdan ham ko‘rinib turibdiki Mirzo Bobur Jomiyning forsha ruq‘alaridan, ya’ni “Munshaot” asaridan ham yaxshi xabardor.

“Boburnoma”da Abdurahmon Jomiyning ijodkor sifatidagi estetik tamoyilini, adabiy qarashlarini yaqqol ko‘rsatadigan bir ma’lumot bor. Aslida bu ma’lumot Hirot shoirlaridan biri Shayxim Suxayliyga bag‘ishlangan o‘rinda

keltirilgan: “Suxayliy” taxallus qilur uchun Shayxim Suxayliy derlar edi. Bir tavr she’r aytur edi. Qo’rqqudik alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budur:

Shabi g’am gird-bodi oham az jo burd gardunro.

Furo ‘burd ajdahoi sayli ashkam rub’i maskunro.

(Bobur ”Boburnoma” Yulduzcha nashriyoti, 1989 y, 150-bet)

(Mazmuni: *G’am kechasi ohimning quyuni osmonni o’rnidan qo’zg’atdi, Ko’z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi.*)

Mashhurdurkum, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida o’qubtur. Mavlono aytibdurkim: “Mirzo, she’r aytasiz yo odam qo’rqutasiz?”

Biz ushbu parcha orqali Abdurahmon Jomiy shaxsidagi bag’rikenglik, ustozga xos ma’naviyat, madaniyatning yuksakligi, muomala etiketi, mutoyibaga moyillik xususiyatlarini ko’rishimiz mumkin. Yuqorida Abdurahmon Jomiy va Shayxim Suxayliy o’rtasidagi ijodiy suhbat Jomiyning estetik qarashlarini ko’rsatadi, degan edik. Aslida Jomiyning Suhayliygga e’tirozi qaysidir ma’noda Mirzo Boburning ham adabiy-tanqidiy qarashlariga mos. Ilmi badi’adan mubolag’a san’atining tabiatini barchamiz yaxshi bilsakda, Mirzo Bobur kabi “bayoni voqeini... rost bitilgay” tamoyiliga amal qiladigan realist ijodkorlar mubolag’ali tasvirni ham voqelikda mavjud bo’lish imkoni bor yo yo’qligiga e’tibor qaratadilar, me’yorni unutmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”da Abdurahmon Jomiy ijodiga maxsus to’xtalinmagan bo’lsada, yuqorida keltirilgan muxtasar ma’lumotlarning o’zidayoq Mirzo Boburning Jomiy adabiy-ilmiy merosiga, shaxsiyatiga bo’lgan cheksiz hurmati va e’tiqodini ko’rish mumkin. Shu bilan birga bu ma’lumotlar bugungi kun kitobxonini Abdurahmon Jomiydek buyuk mutafakkirning insoniy va ijodiy dahosiga yaqinlashtiradi.